

## IBN SINONING “IXLOS” SURASI TAFSIRIDAGI FALSAFIY QARASHLARI TAHLILI

*To‘xtasinov Ro‘zimuhammad Nurmuhammad o‘g‘li, Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi, Buxoro davlat universiteti doktoranti, islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## ANALYSIS OF IBN SINA’S PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE INTERPRETATION OF SURAH “IHLOS”

*Tokhtasinov Ruzimuhammad Nurmukhammad ugli, Teacher at the Higher Madrasah Mir Arab, Doctoral student (DSc) at Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Islamic Studies (PhD)*

## АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ ИБН СИНЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ СУРЫ “ИХЛОС”

*Тохтасинов Рузимухаммад Нурмухаммад оглы, преподаватель в Высшем медресе Мир Араб, докторант Бухарского государственного университета, доктор философии по исламоведению (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0005-1061-4430>  
e-mail:  
[tuxtasinov.m@mail.ru](mailto:tuxtasinov.m@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ibn Sinoning “Ixlos surasi tafsiri”dagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada Ibn Sinoning suraga bo‘lgan yondashuvi, uning **Tavhid** va **Yagona Alloh** haqidagi falsafiy g‘oyalari ochib beriladi. Suraning tafsirida uning islomiy tafakkur va falsafadagi o‘rni tahlil qilinadi. Ibn Sinoning tafsiridagi falsafiy tushunchalar, uning o‘ziga xos falsafiy tizimining rivojiga qanday ta’sir qilganligi ko‘rsatiladi. Maqola, shuningdek, Ibn Sino tafsirining zamonaviy islom falsafasi va tafsiri uchun ahamiyatini tushuntiradi.

**Kalit so‘zlar:** Ibn Sino, Ixlos surasi, falsafiy qarashlar, tafsir, tavhid, islom falsafasi, ilohiyot, tasavvuf.

**Abstract:** This article analyzes the philosophical views of Ibn Sina in his interpretation of the “Ikhlās Surah”. It explores Ibn Sina’s approach to the Surah, particularly his philosophical ideas on Tawhid and the Oneness of God. The article delves into how his interpretation reflects his broader Islamic philosophical system. It highlights the influence of Ibn Sina’s philosophical concepts on the development of Islamic thought and examines the relevance of his interpretations in contemporary Islamic philosophy and exegesis.

**Key words:** Ibn Sina, Ikhlās Surah, philosophical views, exegesis, Tawhid, Islamic philosophy, theology, Sufism.

**Аннотация:** В данной статье анализируются философские взгляды Ибн Сины в его толковании суры “Ихлас”. Рассматривается подход Ибн Сины к суре, особенно его философские идеи о **Тавхиде** и **Единстве Бога**. Статья исследует, как его толкование отражает более широкую исламскую философскую систему. Анализируются влияние философских концепций Ибн Сины на развитие исламской мысли, а также актуальность его толкований в современном исламском философском и экзегетическом контексте.

**Ключевые слова:** Ибн Сино, сура Ихлас, философские взгляды, тафсир, тавхид, исламская философия, теология, суфизм.

## KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Mashhur alloma va faylasuf Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino Buxoriy tibbiyot, falsafa va mantiqqa oid asarlar muallifi. Ibn Sino “Tibbiyotning Gippokrati” va “Hikmatning Aristoteli” deb tanilgan. G‘arb va musulmon olimlari uni “Islomiy faylasuflarning peshvosi” deb atashgan. U haqida: “Farobiydan keyin unga o‘xshagan faylasuf kelmagan”, deb yozilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Ibn Sino Qur’oni Karimning bir qator kichik suralari va ba’zi oyatlariga tafsir yozgan bo‘lib, bu ishni falsafiy, mantiqiy qarashlari asosida amalga oshiradi. Quyida Ibn Sinoning “Ixlos” surasiga yozgan tafsirining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Ixlos surasi bo‘yicha mustaqil tafsirlar va uning falsafiy talqinlari masalasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Ibn Sino (vaf.428/1037) davrigacha bu sura haqida na mustaqil tafsir yozilgan va na falsafiy izoh berilgan. Mansur Halloj (vaf.309.422) ga nisbat berilgan “*Kitobu Tafsiri Qul Huvallohu Ahad*” nomli tafsir haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ushbu asarning mavjudligi tasdiqlanmagan va kutubxona manbalarida qayd etilmagan[1: 242; 2: 162; 3: 305].

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Ixlos surasining falsafiy talqinini birinchi bo‘lib Ibn Sino amalga oshirgan. Shu bilan birga, bu sura haqida mustaqil tafsir yozish an’anasi ham Ibn Sino bilan boshlangan va keyinchalik rivojlangan. Ixlos surasi, uning Allohning zoti haqida chuqur mazmunli ekanligi sababli, aynan Ibn Sinoning falsafiy qarashlari orqali o‘ziga xos tafsir maktabi yaratilishiga asos bo‘lgan. Bu holat tafsir tarixi va falsafiy tafakkur rivojlanishida muhim bosqich sanaladi. Ibn Sino Qur’on tafsiriga falsafiy yondashgan holda, undagi barcha suralarni emas, balki o‘z falsafiy qarashlarini yoritish uchun mos bo‘lgan ayrim sura va oyatlarni tanlagan. Ixlos surasi u tanlagan eng muhim suralardan biri bo‘lib, bu sura Allohning zoti haqida so‘z yuritgani uchun uning falsafiy qarashlari va vahiy o‘rtasida uzviylikni ko‘rsatishga imkon bergan. Ibn Sino ushbu tafsirda o‘zining metafizik tushunchalarining asosi bo‘lgan “vojib-mumkin” (zaruriy va mumkin bo‘lgan mavjudlik) tushunchasini asoslab bergan, Allohning mutlaq mohiyatini tushuntirgan va mavjudlikning

mohiyatdan alohida ekanligini dalillagan. Shuningdek, u mavjudotning zaruriy mavjudlikka ega bo‘lgan zotdan qanday vujudga kelganini Qur’on oyatlari asosida izohlab bergan. Ibn Sino ushbu tafsirni mantiq asosida, qiyoslar tizimiga mos ravishda yozgan. Har bir fikrni chuqur mantiqiy tahlil orqali keltirganligi sababli, tafsiri yuqori ilmiy darajada yozilgan bo‘lib, har bir jumlasini alohida sharhlashni talab qiladi. Bu holatni marhum Ahmad Hamdi Akseki (vafoti 1951y.) quyidagicha ifoda etadi: “Aristotel mantiqini qayta isloh qilgan va tartibga keltirgan ushbu faylasuf o‘zining boshqa asarlari kabi bu asarida ham har bir jumlaning mantiq tarozisi bilan o‘lchagan, har bir jumla alohida sharhlashga muhtoj...”[4]

## MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /

## DISCUSSION).

Ibn Sinoning ushbu tafsir usuli keyingi davrlardagi sharhlovchilar (masalan, Dabbog‘iy va Hodimiy) tomonidan davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Bu tafsir Qur’on matnining mantiq va falsafa asosida talqin qilingan noyob namunasi bo‘lib, uning tafsir ilmi va falsafiy tafakkurdagi o‘rni yuqori baholanadi. Shu orqali Qur’on tafsirida mantiqiy va falsafiy yondashuvning kuchli asoslari yaratilgan. Ibn Sino qalamiga mansub “Ixlos surasi tafsiri” dunyoning ko‘plab kutubxonalarining qo‘lyozmalar fondlarida saqlanadi. Quyida ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

A) Chester Betti 1/17-18 [(11) 3045] - (58 b - 62 a) 699H/1299M. Ushbu nusxaning mikrofoto nusxasi Dubaydagi Jum’a al-Majid kutubxonasida mavjud, raqami 795.

B) Mar’ashiy kutubxonasining ro‘yxatining 1/243 inventar raqam ostida. Ushbu nusxaning mikrofoto nusxasi Dubaydagi Jum’a al-Majid kutubxonasida 3711 inventar raqam ostida saqlanadi.

C) Princeton Universiteti (yangi qo‘lyozmalar) 317-318 (1537) 2 1406- (1b- 12a) 9H/630M.

D) Hindiston kutubxonasi 2/1/14-15 [1234] (1079) \_ (55 \_ 63a) jamlangan \_ 1173H-1179H/1759M-1765M – “Tavhid surasi va Muavvizatayn tafsiri” deb nomlangan. Ixlos va Falaq surasining tafsiri Dehlida 1311H/1893M yilda va Qohiradagi Sa’ada matbaaida 1335H/1917M yilda nashr etilgan.

E) O‘zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo‘lyozmalari asosiy fondida ham ixlos surasining

tafsiri 2385 inventar raqam ostida saqlanadi [5: 118, 119].

Ixlos surasi tartib bo'yicha Qur'oni Karimning 112-surasi bo'lib, 4 oyatdan iborat:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ. قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ 1 اللَّهُ الصَّمَدُ 2 لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ 3 وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ 4

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1. (Ey, Muhammad,) ayting: “U Alloh yagonadir. 2. Alloh behojat, (lekin) hojatbarordir. 3. U tug'magan va tug'ilmagan ham. 4. Shuningdek, Unga biror tengqur ham yo'qdir [6: 604].

Ibn Sinoning “Ixlos” surasiga yozgan tafsirining qisqacha mazmuni quyidagicha:

Avvalo, “Huva” so'zidan Allohning mutlaq mohiyatiga, so'ngra boshlang'ich sababga (mabdal avvalga) o'tib, “vojibul vujud” haqida uzun izohlar beradi. Bu, bir ma'noda vojibni isbotlashdir va uni sharhlovchi mufasssirlarning e'tiborini tortgan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Zoti mutlaqning mohiyati haqida gapirgandan so'ng, ilohiy haqiqatning nima ekanligini bayon qilib, Uning ta'rifining qanday bo'lishi mumkinligini klassik ta'rif nazariyasi asosida muhokama qiladi. Zoti mutlaqning mohiyati, uni tashkil etuvchi quruvchi (muqovvim) unsurlardan iborat emasligi sababli, uning haqiqati haqida aniq bir ta'rif (hadd) berish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Birinchi oyatda keltirilgan “Ahad” so'zidan foydalanib, Zoti uluhiyatning birligini tushuntiradi. Birlikning turlari haqida gapiradi va Zoti uluhiyatning mutlaq birligi haqida bayonot beradi. Uning fikricha, Zoti uluhiyat nafaqat zoti jihatdan birdir, balki zoti uni tashkil etuvchi hech qanday quruvchi (quruvchi) unsurlarni o'zida jamlamaganligi sababli, oddiy (basit) ma'noda ham birdir. Zoti uluhiyatning boshqa narsalarga bog'liq mohiyati yo'q va u butun mavjudotning ilk asosidir. Ko'plik va olam Uning suduridan paydo bo'lgan. Keyinroq, qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, Allohga sherik qo'shish, o'xshash bir mavjudot yaratish yoki tug'ish va tug'ilish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarni isbotlashga harakat qilganlar yoki mavjudotlarga vujud berishdan kelib chiqib, o'xshashlariga ham mavjudlik berishi mumkinligi haqidagi xayolga berilganlar fikrlarining noto'g'ri ekanligini tushuntiradi. U, mavjudotda o'ziga teng bir mavjudot yo'qligini bildiradi.

Oxirida, suraning ishora va ta'rif yo'li orqali Allohning zoti, sifatleri va amallari haqidagi har bir narsani, ya'ni Vojibul vujud bo'lgan Zoti mutlaqni

eng mukammal tarzda ta'riflaganini aytib, Ixlos surasining shu sababli Qur'ondagi suralarning uchdan biriga teng ekanligini ta'kidlaydi [7].

## NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Ibn Sino Ixlos surasini shu tarzda sharhlashi, undan keyingi davrda ham suraning falsafiy va kalomiy nuqtayi nazardan sharhlanishiga sabab bo'ldi va Ixlos surasi haqida qilingan sharhlarda bu qisqa asardan keng foydalanildi. Quyida Ibn Sinoning Ixlos surasi tafsiri ustida sharh yoki hoshiya yozgan olimlar kelitirilgan:

1. Jaloliddin Muhammad ibn As'ad ibn Muhammad Davvoniy (vaf.908/1502).
2. Ahmad al-Maraşiy ad-Dabbog'iy (vaf.1165/1752).
3. Abu Said Muhammad ibn Mustafu ibn Usmon al-Hodimiy (vaf.1176/1762).
4. Muallifi ma'lum bo'lmagan (Konya Yusuf Og'a nusxasi).
5. Abul-Qosim Muhammad Abdurrahmon (XX asr boshlari).
6. Ahmad Hamdi Aksaki (vaf.1370/1951).

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ibn Sino bilan boshlangan falsafiy yo'nalishdagi bu tafsir an'anasi, faylasuflar va kalomchilar nuqtayi nazariga mos ravishda uluhiyat tushunchasining asosan tanzih (Allohning ulug'ligini va mutlaqligini ta'kidlaydigan) yo'nalishda sharhlangan va Alloh taoloning yagona va takrorlanmasligini doimiy ravishda urg'ulagan sharhlar an'anasi sifatida davom etgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ibn Nadim, *al-Fihrist*. – Tehron. 1971. 242 b.
2. Shamsiddin Muhammad ibn Ali ibn Ahmad Dovudiy, *Tabaqotu'l-Mufasssirin*. – Qohira, 1972/1392, 1-jild. – 162 b.
3. Ismoil Posho Bag'dodiy, *Hadiyyatu'l-Arifin*. – Anqara: Milliy Ta'lim Vazirligi, 1955. 1-jild. – 305 b.
4. Ahmad Hamdi Akseki. Ibn Sinoning Ixlos surasi tafsiri, tarjima va sharh. – Turkiya: *Selamet*, 1949. Jild IV, son 11, – B. 1.
5. O'z R FASHI. Asosiy fond. Qo'lyozma. R: 2385. – B. 118-119.
6. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. – Sirdaryo: Yoshlar nigohi, 2023. – B. 604.
7. Abdulloh Abdurrahmon Al-Hatib. Tafsiru Suratil-Ixlos lişh Shayx Abu Ali al-Husayn ibn Abdullah ibn Sina. – Turkiya: Majallatush sharia vad dirosatul islomiyaya, 2002. Jild XVII, son 51. – B. 51.